# TOSHKENT VILOYATI
# TASHQI SAVDO AYLANMASI

*2025- yil yanvar-avgust oylari uchun dastlabki ma'lumot*

I. Tashqi savdo aylanmasi

II. Eksport hajmi

III. Import hajmi

IV. Metama'lumotlar

## I. TASHQI SAVDO AYLANMASI

2025- yil yanvar-avgust oylarida Toshkent viloyatinig tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 4 323,5 mln AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 604,7 mln AQSH dollariga yoki 13,6 % ga ko'paydi.

**Tashqi savdo aylanmasi *(mln AQSH dollari)***




TSAda eksport hajmi 1 364,6 mln AQSH dollarga (2024- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 6,7 % ga ko'paydi) va import hajmi 2 958,9 mln AQSH dollarga (21,3 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida 1 594,3 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

*1.1- jadval*

**Toshkent viloyatining yirik hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi *(mln AQSH dollari)***

| Davlatlar | 2024-y. | 2025-y. |
|---|---|---|
| Xitoy | 1 019,5 | 1 322,5 |
| Rossiya Federatsiyasi | 974,6 | 1 104,3 |
| Qozog'iston | 497,5 | 505,6 |
| Turkiya | 246,3 | 242,2 |
| Qirg'iz Respublikasi | 55,9 | 119,2 |
| Tojikiston | 66,9 | 112,9 |
| Belarussiya | 86,0 | 96,0 |
| Afg'oniston | 41,6 | 92,1 |
| Germaniya | 60,4 | 84,3 |
| Shveysariya | 51,1 | 54,3 |
| Braziliya | 134,8 | 47,4 |
| Belgiya | 25,9 | 46,4 |
| Eron Islom Respublikasi | 27,9 | 41,0 |
| Singapur | 53,0 | 39,0 |
| Hindiston | 35,7 | 38,6 |
| Italiya | 65,0 | 34,6 |
| Koreya Respublikasi | 19,6 | 29,9 |
| Xitoy, Gonkong MMR | 1,3 | 21,4 |
| Turkmaniston | 15,6 | 21,1 |
| Polsha | 11,4 | 21,0 |

Toshkent viloyati jahonning 99 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (30,6 %), Rossiya Federatsiyasida (25,5 %), Qozog'istonda (11,7 %), Turkiya (5,6 %) va Qirg'iz Respublikasida (2,8 %) qayd etilgan.

## II. TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI TARKIBI

*2.1- jadval*

| Tarkibi | Mln AQSH dollari | | O'zgarish sur'ati, % da | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2024- y. | 2025- y. | 2024- y. | 2025- y. | 2024- y. | 2025- y. |
| **Jami eksport** | | **1 364,6** | **102,7** | **106,7** | **100,0** | **100,0** |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 151,2 | 194,4 | 103,4 | 128,6 | 11,8 | 14,2 |
| Ichimliklar va tamaki | 7,8 | 7,5 | 81,0 | 96,5 | 0,6 | 0,5 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 41,9 | 45,2 | 115,6 | 107,9 | 3,3 | 3,3 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 11,3 | 19,9 | 2,7 m. | 176,4 | 0,9 | 1,5 |

| Tarkibi | Mln AQSH dollari | | O‘zgarish sur’ati, % da | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2024- y. | 2025- y. | 2024- y. | 2025- y. | 2024- y. | 2025- y. |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 5,7 | 6,6 | 6,3 m. | 115,2 | 0,4 | 0,5 |
| Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar | 64,1 | 81,5 | 129,9 | 127,3 | 5,0 | 6,0 |
| Sanoat tovarlari | 793,6 | 733,3 | 100,6 | 92,4 | 62,1 | 53,7 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 44,0 | 56,4 | 127,3 | 128,3 | 3,4 | 4,1 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 153,0 | 168,3 | 89,3 | 110,0 | 12,0 | 12,3 |
| Boshqa tovarlar | 0,0 | 38,8 | - | - | 0,0 | 3,0 |
| Xizmatlar | 6,2 | 12,6 | 135,1 | 201,9 | 0,5 | 0,9 |

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,1 % ni tashkil etib, asosiy ulush sanoat tovarlari (53,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (14,2 %), turli xil tayyor buyumlar (12,3 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (6,0 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Toshkent viloyatining yirik eksportyor hamkor davlatlari**
*(mln AQSH dollari)*




2025- yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya Federatsiyasi (32,9 %), Xitoy (23,8 %), Turkiya (8,6 %), Qozog‘iston (8,3 %), Afg‘oniston (6,5 %), Tojikiston (2,8 %) va Qirg‘iz Respublikasi (2,3 %) kabi davlatlar bo‘lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 85,1 % ni tashkil etdi.

2025- yil yanvar-avgust oylarida 194,4 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatgich 2024- yilning mos davriga nisbatan 139,3 % ga yoki 44,4 ming tonnaga ko‘paydi.

### Meva va sabzavotlar eksporti

*2.2-jadval*

| | Miqdori, tonnada | Ming AQSH dollari | Hajmiga nisbatan, o'sish sur'ati |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **194 437,5** | **128 458,3** | **152,9** |
| **Uzum** | 15 583,9 | 13 489,9 | 196,4 |
| **shu jumladan: qurutilgan** | 4 992,2 | 5 509,8 | 2,5 m. |
| **Piyoz** | 31 426,3 | 8 202,4 | 137,7 |
| **Qovun (shu jumladan tarvuz)** | 12 342,0 | 2 852,8 | 113,0 |
| **O'rik** | 6 689,2 | 4 596,0 | 125,4 |
| **Boshqa meva va sabzavotlar** | 128 396,1 | 99 317,2 | 152,8 |

2025- yil yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 128,5 mln AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 152,9 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 9,4 % ni tashkil etdi.

## III. TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI

2025- yilning yanvar-avgust oyida import hajmi 2 958,9 mln AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning mos davriga nisbatan 21,3 % ga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (27,4 %), sanoat mahsulotlari (14,5 %) va nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (14,4 %) hisobiga to'g'ri keldi.

### Toshkent viloyatining importi tarkibi

*3.1- jadval*

| XSST tarkibi | Mln AQSH dollari | | O'sish sur'ati, % da | | Umumiy hajmga nisbatan. % da | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2024- y. | 2025- y. | 2024- y. | 2025- y. | 2024- y. | 2025- y. |
| **Jami import** | **2 440,0** | **2 958,9** | **95,8** | **121,3** | **100,0** | **100,0** |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 502,8 | 399,2 | 114,5 | 79,4 | 20,6 | 13,5 |
| Ichimliklar va tamaki | 6,4 | 2,5 | 151,9 | 39,1 | 0,3 | 0,1 |
| Nooziq-ovqatxomashyo, yoqilg'idantashqari | 328,7 | 427,4 | 87,5 | 130,0 | 13,5 | 14,4 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 286,5 | 308,3 | 159,8 | 107,6 | 11,7 | 10,4 |
| Hayvonvao'simliklarmoylari (yog'lari), yog'larvamumlar | 61,5 | 95,7 | 119,9 | 155,6 | 2,5 | 3,2 |

| XSST tarkibi | Mln AQSH dollari | | O'sish sur'ati, % da | | Umumiy hajmga nisbatan. % da | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2024- y. | 2025- y. | 2024- y. | 2025- y. | 2024- y. | 2025- y. |
| Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar | 230,5 | 300,6 | 89,5 | 130,4 | 9,4 | 10,2 |
| Sanoat tovarlari | 329,3 | 430,5 | 80,9 | 130,7 | 13,5 | 14,5 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 596,7 | 809,3 | 77,3 | 135,6 | 24,5 | 27,4 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 46,0 | 64,1 | 78,5 | 139,5 | 1,9 | 2,2 |
| Boshqa tovarlar | 45,4 | 104,3 | 71,5 m. | 229,1 | 1,8 | 3,5 |
| Xizmatlar | 6,2 | 17,0 | 95,8 | 276,5 | 0,3 | 0,6 |

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025- yilning yanvar-avgust oylarida import qilingan tovarlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 518,9 mln AQSH dollariga ko'paydi va 2 958,9 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 17,0 mln AQSH dollariga yetdi.

**Toshkent viloyatining yirik importyor hamkor davlatlari**
***(mln AQSH dollari)***




2025- yil yanvar-avgust oylarida Toshkent viloyati 90 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar Xitoy (33,7 %), Rossiya Federatsiyasi (22,1 %), Qozog'iston (13,3 %), Turkiya (4,2 %), Qirg'iz Respublikasi (3,0 %), Belarussiya (2,8 %) va Germaniya (2,6 %) jami importning 81,7 % ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-avgust oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 17,0 mln AQSH dollarini yoki jami import hajmining 0,6 % ni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 120,9 barobar oshgan.

## IV. METAMA'LUMOTLAR

*Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi asosida shakllantiriladi: tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar bo'lib, Bojxona qo'mitasining bojxona yuk deklaratsiyasining ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining rezedentdan norezedentga o'tuvchi, davlat chegarasini kesib o'tmaydigan va bojxona deklaratsiyasida hisobga olinmaydigan tovarlarni statistik kuzatuvlari hisoblanadi; tashqi savdo xizmatlar statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.


| | | |
|---|---|---|
| **Chop etishga masul:**<br>Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi | **Ijrochi:** M.Mirzokirov<br>Tel: +998 71 203 45 00 (45 41) | **Manzil:**Toshkent viloyati<br>Nurafshon shahar ,<br>Toshkent yo'li ko'chasi, 90 |